

AHOLI ORASIDA IRSIY KASALLIKLARNING TARQALISH DARAJASI

Mamanova Go'zal Baxtiyorovna

O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Mamanov Sherzod Adilovich

Mustaqil tadqiqodchi Jizzax ona va bola skrinning markazi

genetik shifokori Razzoqov Abdug'affor Quvonovich

Annotatsiya

Irsiy kasalliklar boshqa somatik kasalliklarga nisbatan juda og'ir kechadi, ularning ko'pchiliginini samarali davolash usullari hozirgi kungacha topilmagan. Bu kasalliklarning irsiy omillari (mutatsiyaga uchragan genlar, xromosomalar, irsiyatga moyillik) avloddan-avlodga o'tib, populyatsiyada uchrash tezligi tobora ortib borishi ular profilaktikasining naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: gen, xromosoma, onkogen, teratogen, profilaktika, UTT.

Абстрактный

Наследственные болезни очень серьезны по сравнению с другими соматическими заболеваниями, для многих из которых до сих пор не найдены эффективные методы лечения. Тот факт, что генетические факторы этих заболеваний (мутированные гены, хромосомы, наследственная предрасположенность) передаются из поколения в поколение, а частота встречаемости в популяции увеличивается, свидетельствует о важности их профилактики.

Ключевые слова: ген, хромосома, онкоген, тератоген, профилактика, УТТ.

Abstract

Hereditary diseases are very serious compared to other somatic diseases, many of which have not yet been found effective treatment methods. The fact that the genetic factors of these diseases (mutated genes, chromosomes, hereditary predisposition) are passed from generation to generation, and the rate of occurrence in the population is increasing, indicates the importance of their prevention.

Key words: gene, chromosome, oncogene, teratogen, prevention, UTT.

XXI asrda ikki katta omil – atrof-muhitga katta bosim bilan ta'sir etmoqda, birinchisi Yer yuzi aholisining jadal sur'atda o'sishi bo'lsa, ikkinchisi fantexnikaning taraqqiy etishi va tabiatga ta'siridir. Inson o'z atrofini o'rab olgan tashqi muhit bilan o'zaro munosabatda bo`ladi. Suv, havo, o`simliklar, hayvonot dunyosi, ovqat mahsulotlari, yashash joyi, kiyim-kechagi, shovqin, tebranish, radiatsion nurlanish, turli dori vositalari, biologik-profilaktik preparatlar, zamonaviy havo laynerlari, qishloq xo`jalik zararkunandalariga qarshi ishlataladigan xilma -xil zaharli kimyoviy moddalar va boshqalar odam atrofini o'rab olgan muhitdir. Sanab o'tilgan omillar esa odamning jismoniy va ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir etadi. Yashash sharoitidagi ijtimoiy muammolar ham kishilar sog`ligiga ta'sir qilishi mumkin. Atrofmuhitning ifloslanishi tufayli biosferada ko`payib borayotgan mutagen (onkogen, teratogen) omillar ta'siri nasldan-naslga o`tuvchi irsiy kasalliklar ko`payishiga sabab bo`ladi. Irsiy kasalliklar boshqa somatik kasalliklarga nisbatan juda og'ir kechadi, ularning ko'pchilagini samarali davolash usullari hozirgi kungacha topilmagan. Ammo hozirgi davrda irsiy kasalliklar oldini olishning eng asosiy usuli tibbiy genetik maslahatdir.

Hozirgi kunda ekolgiya - tashqi muhitning o'zgarishi natijasida tug'ilajak farzandlarimiz aqli zaif, nogiron, nuqsoni va irsiy kasalliklar bilan tug'ilish ehtimoli juda katta bo'lmoqda. Buning sabablarini ochish maqsadida genetika bo'limini chuqur va atroflicha o'rganish dolzarb bo'lib kelmoqda.

Shu munosabat bilan Jizzax viloyatida olib borilgan tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda aholi orasida ko'p uchraydigan irsiy kasalliklardan Daun sindomi, gidrosefaliya va sifina bifida kabilar homiladorlikning erta bosqichlarida aniqlanishi mumkin.


Quyidagi jadvalda 2018-2020-yillarda Jizzav viloyatidagi barcha turdag'i irsiy kasalliklarning umumiy soni ko'rsatilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, joriy yillarda nuqsonlar soni ma'lum darajada kamaygan.

| Nº | Tumanlar | 2020y | 2021y | 2022y |
|----|-------------------|-------|-------|-------|
| 1 | Jizzax shahar | 3 | 10 | 2 |
| 2 | Arnasoy tuman | - | - | - |
| 3 | Baxmal tuman | 1 | 1 | 2 |
| 4 | G'allaorol tuman | 3 | 6 | - |
| 5 | Do'stlik tuman | - | - | - |
| 6 | Sh.Rashidov tuman | 6 | 8 | 4 |
| 7 | Zomin tuman | 4 | 2 | 3 |
| 8 | Zarbdor tuman | 7 | 4 | 1 |
| 9 | Zafarobod tuman | 1 | 1 | - |
| 10 | Mirzacho'l tuman | - | 1 | - |
| 11 | Paxtakor tuman | 2 | 3 | 3 |
| 12 | Forish tuman | 1 | 3 | - |
| 13 | Yangiobod tuman | - | 1 | - |
| | Hammasi | 28 | 40 | 15 |

Bundan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, 2020-yilda irsiy nuqsonlar bilan tug'ilgan chaqaloqlar soni 28 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda sezilarli darajada oshdi va 40 ta bo'ldi. Biz bunga sabab qilib aytishimiz mumkinki, ba'zi hududlarda hali ham yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning davom etayotganligi va ekologiyaning buzilishi deb qarash mumkin. Irsiy kasallik bilan og'riqan bemorlarga g'amxo'rlik qilish katta mehnat, sabr va mablag'ni talab qiladi. Birgina Daun sindromiga duchor bo'lgan bemorlarni parvarishlash uchun sarf qilingan mablag' butun gripp kasalligiga qarshi kurashga sarf qilingan summaga teng. Shu sababli, irsiy patalogik holatlarning sonini kamaytirish maqsadida hududlardagi jamoat joylarida jumladan mahalla, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassassalarida targ'ibot va tashviqod ishlarini olib borish hamda o'quvchilar ongiga sog'lom turmush tarzi madaniyatini singdirish, yosh qurilajak oilalarga tibbiy genetik maslahatlar berish va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish jamiyatda sog'lom muhit yaratishga zamin tayyorlaydi.

2022-yilda esa nisbatan tug'ma nuqsonlar soni kamaydi va bunda biz shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, 30 yoshdan oshgan ayollar orasida homilador bo'lganlar soni kamaygan va ular birlamchi skriningga o'z vaqtida borgan ya'ni homila 11-13 haftaligida sitogenetik tekshiruvdan o'tgan. Natijada tug'ilgan chaqaloqlar orasida irsiy kasalliklar uchrash darajasi kamaygan.

| Yillar | Jami nuqson bilan tug'ilganlar | UTT dan o'tganlar | Qon-qarindoshlik nikohlar |
|--------|--------------------------------|-------------------|---------------------------|
| 2020 | 28 | 4 | 1 |
| 2021 | 40 | 9 | 5 |
| 2023 | 15 | 3 | 2 |





1-diagramma. 2020-2022 yillardagi ko'rsatkichlarning foiz hisobi.

Xulosa

Inson irsiyati o'zgarishi genetik, ekologik yoki ijtimoiy omillar bilan o'zaro ta'sirida boradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, kasalliklarning aksariyati ko'p omilli bo'lib, genetika va atrof-muhit bilan bog'liq. Kasallikning genetik xususiyatlarini tushunish, shuningdek, turli odamlarda turli farmatsevtik muolajalarning nisbiy samaradorligini tushunishga yordam beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Aripova G. S, Toirova Z. S. "Tibbiyat genetikasi" fanidan uslubiy qo'lanma. 150 b.
 2. Eshonqulov O. E , Nishonboyeva K. N, Bosimov M. Sh "Genetika" Akademik litsey o'quvchilar uchun darslik. Toshkent-2010. 175 b.
 3. Fayzulayev S. S. Odam genetikasi. "Ijodiy dunyosi" . Toshkent-2003, 160 b.
- <http://www.ziyonet.uz>.